

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'xatga olindi:
№ 159
" " 2019 yil

«TASDIQLAYMAN»
O'quv ishlari bo'yicha prorektori:
prof.A.S.Soleev
«159» 2019 yil

«Tanlov Fan (Atom va molekulyar spektroskopiya)» fanidan

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 140000 – Tabiiy fanlar

Ta'lim yo'nalishi: 5140200 – Fizika

SAMARQAND – 2019

Fan ishchi o'quv dasturi o'quv reja va na'munaviy o'quv dasturiga muvosiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: G'.Murodov - SamDU, "Optika" kafedrasи dotsenti
H.A.Xushvaqtov - SamDU, "Optika" kafedrasи dotsenti

Taqrizchilar: A.Jumabaev - SamDU, "Optika" kafedrasи mudiri, professor
Z.U.Mamatov - SamDU, "Optika" kafedrasи dotsenti

Fanning ishchi o'quv dasturi "Optika" kafedrasining 2019 yil
" " dagi " " sonli majlisida muhokama etilgan va ma'qullangan.

Kafedra mudiri:

 prof. A.Jumabayev

Fanning ishchi o'quv dasturi Fizika fakulteti o'quv-uslubiy kengashining
2019 yil " " dagi " " son qarori bilan tasdiqlangan.


O'quv-uslubiy kengash raisi:

 dots. X.Shakarov

Fanning ishchi o'quv dasturi Fizika fakulteti Ilmiy Kengashining 2019 yil
"6" 07 dagi "//" son qarori bilan tasdiqlangan.



Fakultet Kengash raisi:

 dots. A.Absanov

Kelishildi:

O'quv - uslubiy
boshqarma boshlig'i:

 dots. B.S.Aliqulov

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risidagi qonun»i va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» har tomonlama barkamol shaxsning shakllanishini ta‘minlovchi uzuksiz ta’lim tizimining asosiy huquqiy hujjatidir. Mamalakatimizning har tamonlama rivojlanishi, ko‘p jihatdan oliv va o‘rta maxsus bilim yurtlari etishtirib beradigan mutaxassislarining bilimi va savyasi bilan chambarchas bog‘liq, chunki bu kadrlar yosh avlodni o‘qitishdan tortib to turli texnologik jarayonlarni boshqarishgacha bo‘lgan murakkab va ma’suliyatlari vazifalarni bajaradilar. SHu jumladan, tayyorlanadigan magistrlarimiz bugungi kunda fanning barcha sohalaridan xabardor bo‘lishlari zarur. 5140200– fizika mutaxassisligi bo‘yicha tayyorlanadigan baklavrlar «Tanlov Fan (Atom va molekulyar spektroskopiya)» fanini o‘rganish juda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu fan dasturi atom va molekulyar spektroskopiya sistematikasi; ularning spektrlari va energetik sathlar; tashqi maydonlarni spektrlarga ta’siri, spektral chiziqlarni kengayishi, cpektral chiziqlarni o’tanozik strukturasi; atom, molekulyar spektrlari; kristallarning spektrlari kabi bir qator fizik jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Bu kursni o‘rganish davomida talabalarga atom, molekulyar spektrlari va ularning tuzilishi to‘g‘risida asosiy tushunchalar, spektroskopiya haqida umumiyligi tushunchalar, molekulada elektron, tebranma va aylanma harakatlarni ajratish, kvantlanish qonunlari va sathlararo o‘tishlar chastotasi va intensivligini baholovchi usullar haqidagi ma'lumotlar beriladi. Bundan tashqari, spektrlarga tashqi maydonning ta’siri, spektroskopiyaning amaliy tadbiqlari haqida qisqacha ma'lumotlar keltiriladi.

YOrug‘likning tabiatи, yorug‘lik xodisalaridagi qonuniyatlar va yorug‘lik bilan moddalarning o‘zaro ta’siri insonlarni juda qadimdan qiziqtirib kelgan. YOrug‘likning modda bilan o‘zaro ta’siri natijasida sodir bo‘ladigan fizik jarayonlar doimo fiziklarning diqqat markazida bo‘lgan. Optika - fizikaning bo‘limi bo‘lib, unda yorug‘likning nurlanish jarayoni, har xil muhitlarda tarqalishi va yorug‘likning moddalar bilan ta’siri o‘rganiladi. Optikaning rivojlanishi bilan fizikada spektroskopiya yo‘nalishi paydo bo‘ldi.

Spektroskopiya - nurlanishning, shu jumladan elektromagnit nurlanish hamda akustik to‘lqinlarning modda bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganadigan fan bo‘lib, spektroskopik usullardan bu o‘zaro ta’sirlarning xususiyatlarini o‘rganishda keng foydalaniladi. Bu fanning vazifasi moddaning tuzilishi, tarkibi va xossalari ularning spektrlari orqali aniqlashdir.

Tavsiya etilayotgan ushbu o‘quv dasturida zamonaviy spektroskopiya fani yutuqlaridan, Respublikamizning ushbu sohada ishlayotgan taniqli olimlar tajribalaridan, ajdodlarimizning qimmatli merosidan, va ilmiy xodimlarining ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan keng foydalanish nazarda tutiladi va ishchi o‘quv dasturida o‘z aksini topadi.

Fanning maqsadi va vazifalari:

Atom va molekulyar spektroskopiya fanining maqsadi kondensirlangan muhit (kristallar, suyuqliklar, amorf jismlar va boshqa) larning optik xossalariini o'rganish.

Atom va molekulyar spektroskopiyasi orqali ularning tuzilishini, muhitlar xususiyatlarini (temperatura, zarralar konsentratsiyasi, magnit va elektr maydonlari va h.k.) o'rganish xamda ularning sathlarini va ular orasidagi o'tishlarni tadqiq qilishdan iborat.

Bu kursni o'rganish davomida talabalarga atom va molekulyar optik spektrlari va ularning tuzilishi to'g'risida asosiy tushunchalar, spektroskopiya haqida umumiy tushunchalar, elektron, tebranma va aylanma harakatlarni ajratish, kvantlanish qonunlari va sathlararo o'tishlar chastotasi va intensivligini baholovchi usullar haqidagi ma'lumotlar beriladi. Bundan tashqari, spekrlarga tashqi maydonning ta'siri, spektroskopiyaning amaliy tadbiqlari haqida qisqacha ma'lumotlar keltiriladi.

Fan bo'yicha talabaning malakasiga qo'yiladigan talablar:

«Atom va molekulyar spektroskopiya» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistr:

- fizik optika elementlari (yorug'likning qutblanishi, sinishi, yorug'likning qaytishi, yorug'likning dispersiyasi va sochilishi), statistik fizika elementlari (Bolsman taqsimoti, Fermi-Dirak taqsimoti va boshqa), kvant mexanikasi elementlari (SHredinger tenglamasi, g'alayonlanish nazariyasi, kvant burchakli moment), simmetriya elementlari, aylanma, tebranma va elektron yutilish, nurlanish va sochilish spektrlari, atom va molekulalarning energetik holatlari, energetik holatlар o'rtasida o'tishlar qonuniyatları, molekulalararo o'zaro ta'sirlarva molekulyar komplekslarning hosil bo'lish mexanizmlarini taxlil qilish va tegishli xulosalar chiqarish *ko'nikmalariga ega bylyshi kerak*.

-optik effektlarning asosiy xarakteristikalarini va aniq holatlarga qullay olish, tadqiqot ob'ektini to'g'ri tanlash, tajribalar o'tkazishda tanlangan ob'ekt uchun optik effektlar turini to'g'ri tanlash (kristall yoki suyuqlik), tajriba o'tkazishda optik geometriyani, yorug'likning qaytishi, sochilish burchagi, kuzatish geometriyasini bilishi, olingan tajriba natijalarini tahlil qila olishi va tegishli xulosalar chiqarishi, kristallarning optik xarakteristikalarini tajriba yo'li bilan aniqlash, spektral optik asosblarda, zamonaviy elektron asboblarda, grafik dasturlarda va boshqalarda o'rganilayotgan ob'ektlarning elektron, tebranma, aylanma va lyuminessensiya spektrlarini xamda kristallardagi yutilish va nurlanish spektrlarini o'lchash va foydalanish *malakalariga ega bylyshi kerak*.

O'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi :

«Atom va molekulyar spektroskopiya» fani talabalar uchun mutaxassislik fani hisoblanib, “Qattiq jismlar fizikasi”, “Atom va molekulyar spektroskopiya”, “Molekulyar optika”, “Amaliy optika”, “Kvant mexanika”, “Statistik fizika”, “Elektrodinamika” va “Qattiq jismlar optikasi” fanlari bilan uzviy bog'liq. Magistrant bu kursni o'zlashtirishi uchun matematik va tabiiy (optika, kvant elektronikasi, elektrodinamika, oliy matematika, kimyo, informatika), umumkasbiy (molekulyar

fizika, elektr va magnitizm, atom fizikasi, nazariy fizika, nazariy mexanika, va x.,k.) fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Ushbu talabalarning ta'limg bosqichining tanlov fanlar tarkibiga tegishli bo'lib, plazma fizikasi, astrofizika, lazerlar, spektral analiz, qattiq jism fizikasi va boshqa soxalarni o'rganishda samarali qo'llanishi mumkin.

Fanning o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning kondensirlangan muhitlar spektroskopiyasi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muxim axamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar, tajriba namoishlari, internet tarmog'idan, ko'rgazmali materiallardan foydalaniladi. SHuningdek, ma'ruza, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarida mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

«Atom va molekulyar spektroskopiya» kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

SHaxsga yo'naltirilgan ta'limg. Bu ta'limg o'z mohiyatiga ko'ra ta'limg jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limgni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'limg oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'limg texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. SHaxsnинг jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'limg oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limgni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsnинг o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limgni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'limg beruvchi va ta'limg oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'limg. Ta'limg mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'limg oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy

faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini

qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lif, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rghanishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalar.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlар.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'uotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birqalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'uotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'uotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

«**Atom va molekulyar spektroskopiya**» fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, “Power Point” taqdimot dasturidan, maxsus dastur (ChemOffis, GAUSSIAN)lar va virtual laboratoriyalardan foydalaniadi.

Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog'idagi rasmiy saytlardan foydalaniadi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

ASOSIY QISM
FANNING USLUBIY JIHATDAN UZVIY KETMA-KETLIGI
Ma'ruza mashg'ulotlari

Kirish

Spektroskopiya asoslari va uning moddaning fizik xususiyatlarini tadqiq qilishni rivojlantirishdagi o'rni.

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari va multimediali elektron darsliklar.*

Adabiyotlar: A1; A2; A5; Q1.

Spektroskopiya va uning ahamiyati.

Energetik sathlar o'tasida o'tishlar va tanlash qoidasi. energetik sathlar va spektral chiziqlarning tabiiy va doplercha kengligi. Spektral chiziklarning kengayish mexanizmlari. Spektralarning intensivligi yutilish va nurlanish spektrida intensivlik.

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari va multimediali elektron darsliklar.*

Adabiyotlar: A1; A2; A5; Q2; Q3.

O'z-o'zidan va majburiy o'tish ehtimoliyatları. Enshteyn koefitsienti.

Yorug'likning kombinatsion sochilish spektri intensivligi.

Molekula energiyasining yadrolar orasidagi masofaga bog'likligi. Molekulaning to'liq energiyasi. Born-Oppengeymer yaqinlashishi.

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari va elektron darsliklar.*

Adabiyotlar: A1; A2; A10; Q6; Q8.

Energetik sathlar va spektral yaiziqlarning doplercha va tabiiy kengligi.

Ikki atomli molekulalarning tebranish spektri. Ikki atomli molekulalarning tebranma-aylanma spektri. Tebranma-aylanma polosalarning aylanma strukturasi. Ko'p atomli molekulalar normal tebranishlarining umumiy xarakteristikasi. Tebranishning angarmonikligi.

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari va elektron darsliklar.*

Adabiyotlar: A1; A2; A10; Q6; Q8.

Spektral chiziqlarning intensivligi. YUtilish koefitsienti bilan Enshteyn koefitsienti orasidagi bog'danish.

Tebranishning xarakteristikligi. Ikki atomli molekulalarda elektron holatlar. Ikki atomli molekulalarning elektron spektri.

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari va elektron darsliklar.*

Adabiyotlar: A1; A2; A10; Q6; Q8.

Molekulalarning elektr xossalari. Dipol momenti

Yutilish va chiqarish spektrlari.

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari va elektron darsliklar.*

Adabiyotlar: A1; A2; A10; Q6; Q8.

Yutilish va nurlanish spektrining intensivligi. Kombinatsion sochilish spektrida intensivlik

Vodorod bog'lanish va uning tebranish spektrida namoyon bo'lishi. Kuchsiz vodorod bog'lanishli komplekslar va ularning moddalarining xossalariiga ta'siri. Kuchli vodorod bog'lanishli komplekslar. Vodorod bog'lanish energiyasini aniqlash usullari.

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Zamonaqiy kompyuter texnologiyalari va multimediali elektron darsliklar.* Adabiyotlar: A1; A6; A7; Q2; Q4; Q7.

Molekulalarning to'liq energiyasi. Molekula energiyasining yadrolar orasidagi masosaga bog'liqligi

Organik birikmalarning spektral parametrlarini kvanto-ximik hisoblash.

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Zamonaqiy kompyuter texnologiyalari va elektron darsliklar.*

Adabiyotlar: A2; A4; A5; A11; Q5; Q6; Q7.

Molekulalarning aylanma harakati va chiziqli molekulalarning aylanma spektri

Kondensirlangan muhitlar lyumenissensiyasi. Nodir elementlar va kristalofosforlar lyumenissensiyasi. Kondensirlangan muhitlar spektroskopiyasining amaliy tadbiqlari.

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif. Zamonaqiy kompyuter texnologiyalari va elektron darsliklar.*

Adabiyotlar: A1; A2; A4; A5; A11; Q2; Q3; Q5; Q6; Q7.

«Atom va molekulyar spektroskopiya» fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

I. MA'RUDA MASHG'ULOTLARI

Nº	Mavzu va asosiy masalalar	Soat
1	Spektroskopiyaning asosiy qonunlari va bo'limlari. Energetik sathlar va ular orasidagi o'tishlar	2
2	Spektroskopiyani nurlanishning va atomlar sistemasining xossalariiga qarab bo'linishi	2
3	Energetik sathlarning asosiy xarakteristiklari	2
4	Atomlar sistemasining simmetriyasi. Simmetriya elementlari	2
5	Energetik sathlar o'rtasida o'tishlar va tanlash qoidasi. Uyg'ongan holatning yashash vaqtisi. Dipol nurlanish	2
6	Spektral chiziqlar va energetik sathlarning tabiiy kengligi	2
7	Spektralning intensivligi. Yutilish va nurlanishning quvvati	2
8	Yorug'likning yutilishi. Yutilish koeffitsenti	
9	Atom spektroskopiyasi. Vodorod atomining spektri. Kvant sonlari	2
10	Bir elektronli atomlar spektrining yadroning zaryadi va massasiga bog'liqligi. Bir elektronli atomlar turg'un holatning	2

	harakteristikasi	
11	Bir elektronli atomlar uchun tanlash qoidasi va o'tishlar ehtimoliyati energetik sathlar va spektral chiziqlarning nozik strukturasi	2
12	Molekulalarning elektr xossalari. Dipol momenti. Qutblanuvchanglik tenzori va uning xossalri. Molekulyar qutblanish.	2
13	Yutilish va nurlanish spektrining intensivligi. Kombinatsion sochilish spektrida intensivlik.	2
14	Molekulalarning to'liq energiyasi. Molekula energiyasining yadrolar orasidagi masofaga bog'liqligi.	2
15	Molekulalarning aylanma harakati va chiziqli molekulalarning aylanma spektri.	2
16	Simmetrik va assimmetrik tipdagи molekulalarning inersiya momenti va aylanish doimiyligi.	
17	Molekulalarning tebranma harakati va ikki atomli molekulalarning tebranish energiyasi.	2
18	Ikki atomli molekulalarning tebranma-aylanma spektri. Tebranma-aylanma polosalarning aylanma strukturasi.	2
19	Ko'p atomli molekulalar normal tebranishning umumiy xarakteristikasi.	2
20	Molekulalarning normal tebranishlarini hisoblashning umumiy usuli.	2
21	Ko'p atomli molekulalarning tebranishining angormonikligi. Alternativ taqiq. Fermi rezonansi.	2
22	Ikki atomli molekulalarda elektron holatlar va kimyoviy bog'lanish.	2
23	Ikki atomli molekulalarning elektron spektri. Elektron -tebranma polosalarning aylanma strukturasi.	2
24	Molekulalararo o'zaro ta'sir va uning tebranish spektrida namoyon bo'lishi.	2
25	Vodorod bog'lanish va uning tebranish spektrida namoyon bo'lishi.	2
26	Molekulalarning spektral parametrlarini noemperik hisoblash usullari	2
Jami		52

II AMALIY MASHG'ULOTLARI

Nº	Mavzu va asosiy masalalar	Soat
1	Spektroskopiyaning qo'llanilishi. Spektral tahlil.	2
2	Molekulalarning elektr xossalari.	2
3	YOrug'lik sochilishining turlari.	2

4	Molekulyar sochilish. Mondelshtam-Bryulleen sochilishi	2
5	YOrug'likning kombinatsion sochilishi	2
6	Kombinatsion sochilishdan hosil bo'lgan spektrlarni taxlit kilish.	4
7	Molekulalar simmetriyasi. Simmetrik assimetrik molekulalar.	2
8	Dipol nurlanish. Magnit dipol nurlanishi va kvadropol nurlanishi	2
9	Muvozanatlari nurlanishning asosiy qonunlari	2
10	Molekulalarning o'lchamlari va formasi.	2
11	Molekulalarning geometrik parametrlarini aylanish spektri yordamida o'rganish.	4
12	Molekulalarning tebranma harakati. Tebranishning angarmonikligi.	2
13	Molekulalarning elektron spektrlari.	2
14	Lyuminessiysiya hodisasi. Flyuretsensiya va fosforotsensiya.	2
15	Elektron yutilish spektrining asosiy parametrlarini xisoblash.	4
16	Molekulalararo tasir turlari.	2
17	Molekulalararo o'zaro tasirlarning spektrda namoyon bo'lishi.	2
18	Vodorod bog'lanishli komplekslarda tebranish polosasining formasini o'rganish	2
19	Molekulalararo vodorod bog'lanish energiyasini elektron yutilish spektri yordamida xisoblash.	4
20	Molekulyar agregatlarni spektral parametrlarini xisoblash.	4
21	Kondensirlangan muhitlarning IQ yutilish spektri.	2
22	Molekulalarning spektral parametrlarini kvanto-ximik hisoblash usullari.	2
Jami		54

III.MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARI

(mavzular bo'yicha referat tayyorlash bilan uzashtiriladi)

Nº	Mavzu va asosiy masalalar	Soat
1	Spektroskopiya va uning ahamiyati. Spektral tahlil. Sifatiy va miqdoriy tahlil.	8
2	Spektral chiziqlarning kengligi. Zarrachalarning o'zaro tasiri tufayli spektral chiziqlarning kengayishi.	8
3	Molekulalarning aylanma harakati. Inersiya momenti.	8

	Aylanish doimisi.	
4	Ko'p atomli molekulalarda angarmoniklik. Alternativ taqiq. Fermi rezonansi.	8
5	Molekulalarning elektron spektri. Frank Kandon prinsipining mohiyati.	8
6	Yorug'lik sochlishining turlari. Molekulalaring termodenamik va spektral parametrlarini yorug'lakning sochilishi yordamida o'rganish.	8
7	Molekulalararo o'zaro tasirlarminng yorug'likning yutilishi va sochilishi yordamida o'rganish.	8
8	Molekulalarning tebranima harakati va ikki atomli molekulalarning tebranish energiyasi	8
9	Sferik pildiroq tipidagi molekulalarning aylanish spektri	8
10	Ko'p atomli molekulalar normal tebranishining umumiy xarakteritikasi	8
11	Ko'p atomli molekulalarning tebranish spektri, molekula tebranishining angarmonikligi	8
12	Vodorod bog'lanish energiyasini o'chash	4
13	Elektron tebranma polosalar aylanma strukturasining umumiy xarakteristikasi	8
Jami		100

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING

SHAKLI VA MAZMUNI

Atom va molekulyar spektroskopiya fani bo'yicha magistrantning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan topshiriqlarni bajaradi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda testlar echadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilalar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivoytlantiradi. SHuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy

mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

DASTURNING INFORMATSION - USLUBIY TA'MINOTI

O'quv dasturidagi mavzularni o'tishda ta'limging zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija berishdan kelib chiqib, tegishli mavzular bo'yicha foydalanish imkoniyati bo'lgan texnik vositalar yordamida namoyish tajribalari, fanga tegishli qonuniyatlarni aks ettiruvchi multimediali elektron darsliklar, ko'rgazmali materiallar va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan.

"ATOM VA MOLEKULYAR SPEKTROSKOPIYA" FANIDAN TALABALAR BILIMINI REYTING TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH MEZONI

Atom va molekulyar spektroskopiya Fan bo'yicha talabalarning bilim savyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lif standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

Joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollevkium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

Oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

YAkuniy nazorat (YAN) – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. YAkuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o'tkaziladi. Oliy ta'lif muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YAN ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, YAN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YAN qayta o'tkaziladi. Talabaning bilim savyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali

ifodalanadi.

«Atom va molekulyar spektroskopiya» fani bo'yicha talabalarning semestrdag'i o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Y.A.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriplarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55 ball va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kiritiladi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

ON va **YAN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YAN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi. **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi. Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 baldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalarini e'lon qilingan vaqtidan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'limgan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning talablar asosida belgilangan muddatda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi dekan, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

Maksimal ball	Baholanadigan ish turlari
---------------	---------------------------

Jami	1-OB	2-OB	
28	14	14	Tegishli bo'lim bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasi.
7	3	4	O'quv dasturiga qo'shimcha mavzular bo'yicha konspekt yozish va himoya qilish (mustaqil ta'lif).
35	17	18	

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari

Jami	Maksimal ball			Baholanadigan ish turlari
	1-JB	2-JB	3-JB	
35	11	12	12	Darsga nazariy tayyorgarlik bilan kelish va faol ishtirok etish, uy vazifalarini bajarish (mustaqil ta'lif).

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o'tkaziladi va yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi:

Ball	Baho	Talabaning bilim darajasi
86-100	A'llo (5)	Xulosa va qaror qabul qilish, ijodiy fikrlay olish, mustaqil mushohada yurita olish, olgan bilimlarini amalda qo'llay olish, mohiyatini tushunish, bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi (4)	Mustaqil mushohada yurita olish, olgan bilimlarini amalda qo'llay olish, mohiyatini tushunish, bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli (3)	Mohiyatini tushunish, bilish, aytib berish tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz (0-1-2)	Bilmaslik, aniq tasavvurga ega bo'lmaslik.

Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezoni

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 4 ta nazariy savol va 1 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan. Har bir nazariy

savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-6 ball oralig'ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish balli hisoblanadi.

«ATOM VA MOLEKULYAR SPEKTROSKOPIYA» FANI BO'YICHA

REYTING NAZORATLARI GRAFIGI

Ta'lim yo'nalishi: fizika (yo'nalishlar bo'yicha)

Umumiy o'quv yuklamasi – ____ soat, shundan ma'ruza-52, amaliyot-54, mustaqil ish-____.

Ma'ruzalar	O'quv yuklamasi, soat								
	Ma'ruza	Amaliyot	Mustaqil ish	Jami	Nazorat shakli	SHakli	Bali		Muddat
					Nazorat shakli	SHakli	Maksi mal	Saral ash	
Joriy baholash									
Amaliy: 1-8	52	54			JB	Yoz ma	35		Mart 1-hafta
Oraliq baholash									
Ma'ruza: 1-8	52	54			OB	Yoz ma	35		Aprel 1-hafta
							70	39	
Yakuniy baholash									
Ma'ruza: 1-8	52	54			YAB	Yoz ma	30		(jadval bo'yicha)
Amaliy: 1-8							100	55	

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. М.А.Ельяшевич. Атомная и молекулярная спектроскопия. М.Наука., 2004.-892 с.
2. G'.Murodov, H.Xushvaqtov. Spektroskopiya asoalari. Voris nashriyot, Toshkent-2015.
3. Ф.Х.Тухватуллин, У.Н.Ташкенбасев, А.Жумабаев, Х.Хушвақтов, А.Абсанов. Структура молекулярных агрегатов в жидкостях и их проявления в спектрах комбинационного рассеяния. Ташкент-2014

4. М.Г.Бахшиев. Спектроскопия межмолекулярных взаимодействий. — Ленинград: Наука. 1972, с.208.
5. М.В.Волькенштейн, Л.А.Грибов, М.А.Ельяшевич, Б.И.Степанов. Колебания молекул. 1972.
6. П.К.Хабибулаев, В.Булавин, В.Е.Погорелов, Ф.Х.Тухватуллин, А.Жумабаев. Динамика молекул в жидкостях, Ташкент ФАН, 2010.- 401 с.
7. К.Бенузл Основы молекулярной спектроскопии: Москва «Мир» 1985. – 384 с.
8. Мальцев А.А. Молекулярная спектроскопия. М., изд-во МГУ, 1980, -272 с.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Ташкенбаев У.Н., Тухватуллин Ф.Х. Сеит-Энон М.А., Жумабоев А. Изучение межмолекулярных взаимодействий в жидком хлороформе методами спектроскопии комбинационного рассеяния и квантовой химии // ДАН РУз. 1999. №6. С.23-26.
2. F.H.Tukhvatullin, V.E.Pogorelov, U.N.Tashkenbaev, A.Jumaboev, H.Hushvaktov, M.Seit-Enon, S.A.Osmanov. Intermolecular interaction in liquid dimethylformamide and its manifestation in Raman spectra//J. Of Raman spectroscopy, 2003.V.34(10), p. 813-818.
3. Шахпаронов М.И. Межмолекулярные взаимодействия. М: Знание. 1983. - 64 с.
4. Отажонов Ш. «Молекуляр оптика» Т.1994.

INTERNET SAYTLARI

1. <http://molsp.phys.spbu.ru/index.html>.
 2. http://dic.academic.ru/dic.nsf/enc_physics/2831/.
 3. http://www.nioch.nsc.ru/cafedra/nspu/phys_methods_nspu/program.htm.
 4. www.zivonet.uz.
 5. <http://www.bibliofond.ru/view.aspx?id=135854>.
 6. http://www.ph4s.ru/book_ph_ravn.html.
- http://www.nioch.nsc.ru/cafedra/nspu/phys_methods_nspu/program.htm.